ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 284 sahifa,*
*1-iyun, 2026-yil.*



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini ........ 10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻzini oʻzi anglashida muloqotning oʻrni ........ 14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa

Maktabgacha ta'lim tizimida sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari ..... 17
Dilsora Shodmonova

Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях ........ 24
Истамова Нигора Азимжановна

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari........ 29
Saidova Nigora Olimovna, Gʻulomova Shaxnoza Abdusalom qizi

Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yoʻllari........ 32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich

Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari........ 36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul oʻgʻli

Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish........ 40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich

Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline ........ 44
Lola Mannobova

Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries ........ 48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining qobiliyat, qiziqish va oʻrganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejalari ........ 51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi

Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik koʻrinishlari ........ 55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi

Oʻyin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari boʻlgan bolalar ijtimoiy koʻnikmalarini rivojlantirishdagi oʻrni ........ 59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich

Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari ..... 64
Alimova Gulrux Farhod qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv oʻyin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ........ 70
Axtamova Mohinur Oʻtkir qizi

Oilaviy zoʻravonlikka uchragan ayollarni qoʻllab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning oʻrni ........ 74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, Toʻlqinova Muxlisaxon Jamshid qizi

Oʻzbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) ........ 78
Gʻaybulloyeva Parvina Samandar qizi

Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogenezda shakllanishi ........ 82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi

Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi ........ 87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna

Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari ............................ 91
Shodmanxojiyeva Iroda Ne’matulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda o‘yin texnikalarining roli ............ 95
Jamolova Farida Fatillo qizi

Ta’lim qardosh tillarga yo‘naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) ........................................................ 98
Jumagulova Gulziya Madiyarovna

Oliy ta’limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko‘nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish ........................................................................... 103
Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o‘g‘li

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish ..................... 107
Maqsuda Maxsudovna Murodova

O‘zbek tilida “nur” so‘zining ko‘chma ma’nolari ........................................................................................ 113
Maxbuba Axatova

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari ................................................................. 116
Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa’dullayevna

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar ....................... 120
Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari... 123
Niyozova Maftuna Normaxmat qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Tarbiya” fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish..................................................................................... 126
Norbo‘tayeva Iroda Yunusovna

Suzish vositalari yordamida talabalarning qo‘l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .................... 130
Nosirov Sardor To‘lqinjon o‘g‘li

Bo‘lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ................ 134
Nosirova Ra’no Xamidovna

Dual ta’limda oliy ta’lim va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikning mazmuni ................. 137
Qoraboyeva Zohidaxon To‘lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli ................................................. 142
Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Texnologiya fanini o‘qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .................. 146
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich

O‘zbekistonning zamonaviy ta’lim muhitida o‘zbek-rus bilingvizmi sharoitida o‘quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari ................................................................................................ 149
Qurdasheva Bonu Bexzod qizi

Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo‘lishining o‘rganilishi .................................. 153
Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi

Musiqa fanlarini o‘qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari......................... 157
Raximova Dilbar Rizakulovna

Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida.. 161
Raximova Maryam O‘tkir qizi

Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni.. 173
Alimova Nasiba Adxamovna

Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari................................ 179
Kurbonova Kamola Ilxomovna

Nutq madaniyati va notiqlik san’ati ................................................................................................. 183
Mamadaliyeva Lola Shailyasovna

Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .................... 188
Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich

Oliy o‘quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikning zarurati ...... 192
Samatov Javlonbek Abdukayumovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi ... 195
Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna

Modern Teaching Methods in English Language Learning ... 199
Sarvinoz Abdulhakimova

Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi ... 202
Shahnoza Muhammadiyeva

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ... 205
Shopulatova Nasiba Umirovna

Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari ... 208
Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid

Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ... 211
Temirov Murodjon Anvarovich

The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students ... 215
Toshmamatova Marjona Olimjon kizi

Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik ... 220
Toshpo'latova Mahina Farxod qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari ... 224
Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi

Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations ... 228
Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi

Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications ... 232
Veronica Khatamova

Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi ... 236
Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida ... 240
Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova

Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish ... 246
Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation ... 250
Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.

Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan ... 254
Saytbekova Svetlana Saylaubaevna

Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ... 257
Xoldorova Mashxura G'ulomovna

Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari ... 260
Xudaybergenova Zuxra Isakovna

Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari ... 263
Yusupov Ma'mur Ma'rufovich

Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина ... 269
Рахимова Шахзода Равшановна

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari ... 273
Imamova Nasiba Xurramovna

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .................. 276
Xidirov Faxriddin Fozilovich

Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .................. 280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA O'YIN TEXNIKALARINING ROLI

Jamolova Farida Fatillo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha talim) magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin, uning turlari hamda bola rivojlanishidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalar nutqini rivojlantirishda turli o'yin texnikalarining ahamiyati hamda ushbu o'yin turlarini turli yosh guruhlarida qo'llash bo'yicha usul va texnikalar yoritib berilgan. Maqolada o'yin bolaning so'z boyligini oshirishi, erkin muloqot qilish, boshqalar fikrini tinglay olish, mustaqil fikrlash, jamoada o'z o'rniga ega bo'lishi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, nutq rivojlanishi, o'yin texnikalari, didaktik o'yin, rolli o'yin, kommunikativ kompetensiya, bolalar nutqi, pedagogik texnologiyalar.

**Abstract:** This article discusses games, their types, and their role in supporting speech development in preschool children. It also highlights the importance of various game techniques in children's speech development, as well as methods and techniques for applying these games in different age groups. The article substantiates that games play an important role in enriching children's vocabulary, developing free communication, listening to others' opinions, independent thinking, finding their place in a group, and improving communicative competencies.

**Key words:** preschool education, speech development, game techniques, didactic games, role-playing games, communicative competence, children's speech, pedagogical technologies.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются игра, её виды и роль в развитии ребёнка при поддержке речевого развития детей дошкольного возраста. Также освещены значение различных игровых технологий в развитии речи детей, методы и приёмы применения данных видов игр в разных возрастных группах. В статье обосновано, что игра способствует расширению словарного запаса ребёнка, формированию свободного общения, умению слушать мнение других, самостоятельному мышлению, нахождению своего места в коллективе, а также развитию коммуникативных компетенций.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, развитие речи, игровые технологии, дидактическая игра, ролевая игра, коммуникативная компетенция, речь детей, педагогические технологии.

## KIRISH

Maktabgacha yosh davri bola hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni idrok etishni o'rganadi, jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan rivojlanadi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantira boshlaydi. Shu bilan birga, bilish jarayonlari, jumladan sezgi, idrok, xotira, tafakkur va tasavvur izchil rivojlanib, takomillashib boradi.

Nutq bolalarning his-tuyg'ulari, fikrlari va ruhiy holatini ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolalar nutqi jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ushbu jarayonda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va takomillashtirishda o'yin texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati bolalarning nutqiy faolligini oshirish, lug'at boyligini kengaytirish hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Nutq maktabgacha yoshdagi bolaning bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur, xotira, tasavvur va sezgi rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutqi yaxshi rivojlangan bola o'z fikrlari va ichki kechinmalarini aniq, ravon hamda mantiqiy izchillikda bayon eta oladi, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot o'rnatadi. Aksincha, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar bolalarda tortinchoqlik, muloqotdagi qiyinchiliklar, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va bolalar nutqining shakllanish hamda rivojlanish qonuniyatlari yoritib berilgan.

Xususan, L.S. Vigotskiy bolaning nutqi va tafakkuri o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab, nutqning rivojlanishi bolaning aqliy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini asoslab bergan [3]. Olimning fikricha, bolaning ijtimoiy faoliyati va atrofdagilar bilan muloqoti uning nutqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va tafakkurni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

A.N. Leontev o'yin faoliyatini bola rivojlanishining yetakchi omillaridan biri sifatida baholab, aynan o'yin jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi sifatlar rivojlanishini qayd etgan [4]. Uning ta'kidlashicha, o'yin faoliyati bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirib, nutqiy faollikning oshishiga xizmat qiladi.

D.B. Elkonin esa rolli o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida e'tirof etgan [5]. Olimning fikricha, bola o'yin davomida turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, muloqot tajribasini boyitadi hamda nutqiy faolligini rivojlantiradi. Rolli o'yinlar bolalarda dialogik nutqni shakllantirish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlarning tadqiqotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'yin metodlaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, F.R. Qodirova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda o'yin faoliyati, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni alohida yoritilgan [7]. Olimaning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuv bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarning mustaqil fikrlashi, erkin muloqot qilishi va ijodiy faolligini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kuzatish, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish hamda ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan o'yin texnologiyalari va metodlarining bolalar nutqini rivojlantirishga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, o'yin faoliyatining bolalarning nutqiy faolligi, lug'at boyligi, muloqot ko'nikmalari hamda fikrlash jarayonlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnologiyalari muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo'lib, ular aynan o'yin jarayonida atrof-muhitni o'rganadilar, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qiladilar, yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Shu bilan birga, o'yin faoliyati bolalarda kasblar, ijtimoiy munosabatlar va hayotiy vaziyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlar bolalarning lug'at boyligini oshirish va nutqiy faolligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Jumladan, "Kim nima qiladi?", "Ortiqchasini top", "Rasm asosida hikoya tuz" kabi o'yinlar orqali bolalar yangi so'zlarni o'zlashtiradilar, ularni nutq jarayonida qo'llashni o'rganadilar hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Rolli o'yinlar esa bolalarda dialogik nutq, emotsiyalarni boshqarish, hamkorlik va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. "Shifokor va bemor", "Oila", "Do'kon" kabi o'yinlarda bolalar turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali erkin muloqot qilishga, fikr almashishga va o'z munosabatlarini ifodalashga harakat qiladilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Teatrlashtirilgan o'yinlar bolalarda ifodali nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ertak va hikoya qahramonlari obrazlarini ijro etish jarayonida bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, intonatsiyadan o'rinli foydalanishni hamda his-tuyg'ularni nutq orqali ifodalashni o'rganadilar. Natijada ularning nutqi yanada ravon, ta'sirchan va mazmunli bo'lib boradi.

Harakatli o'yinlar ham bolalar nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki harakatli faoliyat davomida bolalar o'zaro muloqotga kirishadilar, topshiriqlarni birgalikda bajaradilar, fikr almashadilar va nutqiy faollik namoyon etadilar. Bu jarayon esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalaridan muntazam foydalanish bolalarda quyidagi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi:

- lug'at boyligining ortishi;
- erkin va samarali muloqot qilish;
- mustaqil fikrlash;
- ravon va ifodali nutq;
- ijodiy tafakkur;
- tinglash va tushunish qobiliyati.

Pedagogik kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning o'quv faolligi yuqori bo'ladi, ular nutqiy muloqotga tezroq kirishadilar hamda topshiriqlarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan bajaradilar. Bu esa o'yin texnologiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnologiyalari muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlariga mos kelib, nutqiy ko'nikmalarni tabiiy va samarali tarzda rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. O'yin jarayonida bolalar erkin muloqotga kirishadi, o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadi hamda nutqiy faolligini namoyon etadi.

Didaktik, rolli, teatrlashtirilgan va harakatli o'yinlardan maqsadli foydalanish bolalarda lug'at boyligini kengaytirish, ravon va ifodali nutqni shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur o'yinlar bolalarning ijtimoiylashuvi, ijodiy tafakkuri va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'yin texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish, pedagoglarning metodik kompetensiyalarini muntazam takomillashtirish hamda innovatsion va interaktiv metodlarni ta'lim amaliyotiga joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv bolalarning nutqiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1999.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975.
5. Эльконин Д.Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978.
6. Babayeva D.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
8. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2017.

13.00.00 Pedagogika fanlari

13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)

13.00.03 Maxsus pedagogika

13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)

13.00.07 Ta’limda menejment

13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

13.00.09 Ijtimoiy pedagogika

07.00.00 Tarix fanlari

19.00.00 Psixologiya fanlari

01.00.00 Fizika-matematika fanlari

02.00.00 Kimyo fanlari

03.00.00 Biologiya fanlari

09.00.00 Falsafa fanlari

10.00.00 Filologiya fanlari

11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(1)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.